

NURAFSHON TONGLAR

*Muruvat
G'afforjonova*

RINCHI KITOBIM

84
F69




BIRINCHI KITOBIM

Muruvvat G'aforjonova

NURAFSHON TONGLAR

She'rlar



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

Chopon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy-uyi
Toshkent - 2016

UO'K 821.512.133-1
KBK 84(50)'7
G' 69

Ushbu kitob O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o'tkazilgan «Iste'dod maktabi» Respublika yosh ijodkorlari seminarida nashrga tavsiya qilinib, «Ijod» tomi tomonidan nashr etilgan.

Mas'ul muharrir:
Nodir Jonuzoq

G'aflojonova, Muruvvat
G' 69 Nuraifshon tonglar [matn]: she'rlar/Nl. G'aflojonova — T.: Cho'lpun nomidagi NMIU, 2016.
— 40 b.

ISBN 978-9943-05-815-6
UO'K 821.512.133-1
KBK 84(50)'7

ISBN 978-9943-05-815-6
© Cho'lpun nomidagi NMIU, 2016

O'zbekiston Respublikasi
Mustaqilligining
25 yiliga bag'ishlandi

DURI DAVRON

Har bir chekmish ohingni ko'kka nardbon,
dedilar,

Xush bo'y yog'di havodan, tog'i rayhon, dedilar.
Yuzing siypab sabolar, nuri iymon, dedilar,
G'unchalar yumdi ko'zin,abri nayson, dedilar,
Aylanay, jon tasaddug, duri davron, dedilar.

O'tmishingni o'ylasam, dog'i hiyronda qamar,
Yarmi ko'ksimda o'ksik, yarmi osmonda qamar.

Voh elim-ey, o'g'lonlar joni ketdi besamar,
Savashda singan qilich —
hilot tushsa ko'zga gar,
«Taqqil buni, tillagosh, zebigardoni!» — dedilar.

Ming yildirki, tosh qotgan kahrabolar so'ylasin,
Yovga darvoza ochgan aqrabolar so'ylasin,
Dilozor-u, dilatgor, dirabolar so'ylasin,
Sargashta firoq yutgan mubtalolar so'ylasin,
Haq so'z aylagan bolangni «Qil toshbo'roni!» —
dedilar.



Bahodirsiz qaytdilar uchqur saman, g'irotlar,
 Yoshlar Sayhun bo'ldi-yu, ko'kni qopladi dodlar.
 Nomardlar nayzasiga boshbezak bo'ldi mardlar,
 Ko'zlari javdirab zor munis, mushטיפار zollar.
 «Hali ko'rasiz, bolam qaytar omon», — dedilar.

Ortda qoldi zulmumot — yiroq bo'ldi, yot bo'ldi,
 Zolimlarning zulmidan el-ulus ozod bo'ldi,
 Tonglar oldi nurafshon, yurt yorug', obod bo'ldi.
 Yoronlar ham yaqin-u, ko'ngillar ham shod bo'ldi,
 «Keldi ulug' karvonga buyuk sarbon!» — dedilar.

Maloyiklar yog'ilib, doston qildi xatini,
 Maloyiklar yig'ilib, bo'ston, dedi zotini.
 Yoki jannat, yo ravza, rizvon, dedi otini,
 Ming o'yu xayol bilan topolmay sifotini,
 Yer-u samovotda bir «O'ZBEKISTON!» dedilar.



BOSHQACHA

Dunyo kengdir, har bir elning taronasi boshqacha,
 Go'zallari boshqachadir, mardonasi boshqacha.

Aritqolik dugonam bor, quyosh qizi, tun qizi,
 Ming o'rilgan jilvir sochin sollonasi boshqacha.

Yana kimdir maqtaydi xo'b farang, olmon qizlarin,
 Yuzi sutga chayilgannish, tamannosi boshqacha.

Chinlarning chin go'zali ko'p,
 hindlarning mo'l sanami,
 Turnagator tursa bari, har donasi boshqacha.

Bir yon bo'lsin butun olam go'zallari, mayliga,
 O'zbekimning parimakon Farg'onasi boshqacha!





QASHQADARYO

Chappar urib keldim men ham quchog'ingga,
Qashqadaryo, onajonim Qashqadaryo!
Peshvoz chiqding, manzilimiz bitta, deya,
Faqat yo'llar boshqa daryo, boshqa daryo.

Munkib-munkib xayrlashmay tizlar bilan,
Bo'zlab-bo'zlab xayrlashmay bo'zlar bilan,
Ro'zi mahshargacha qalam, so'zlar bilan
Borodurman ruhim sig'may loshga, daryo.

Oq olmalar orasidan saralandim,
Yorga yogay dedim, axir, orolandim,
Orolangan sayin qattiq yaralandim,
Keraksizman bitta qaro qoshga, daryo.

Yo'llarimdan qoching endi, qulzum tog'lar,
So'zlarimga qulog' tuting bir zum, tog'lar,
Axir, mening olamdan bor qarzim, tog'lar,
Suyansin-da, hech yo'qsa qir, dashga, daryo.

Amali yo'q, a'moli bor inim mening,
Raqibga ham rafiq bo'lgan elim mening,
Bilgani Haq, bilmagani tinim mening,
Buyurgani tong-sahardan oshga, daryo.

Hog'ing, bizning davron keldi, dillar, keling,
Ona zamin belbog'i — siz, yo'llar, keling.
Turkistonni turg'azguvchi ullar, keling,
Yuragimiz zarbi yetgay Shoshga, daryo.

Ko'nglim qolib ketar bo'ldi quchog'ingda,
Garchi yo'llar boshqa daryo, boshqa daryo,
Tilagim shu — ayrilma hech xush chog'ingdan,
Dilg'inangda bo'lmasin dog', qashga, daryo...
Qashqadaryo!

YONIQ CHIROQ

*Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizgakin, erur yorlig' ish.*

Alisher Navoiy

Jilg'alarga qo'shilib oqsam,
Yer ingrog'i bag'rim tiladi.
«Navoiy!» deb osmonga boqsam,
Jovdir-jovdir yulduz keladi.

Dunyo yonar... Muhorabalar —
Jaholatdan to'ralgan vabo.
Olovlariga ko'z yosh sepadi
Tushlarimda Navoiy bobo.

— Bobol — deymen, — dardim ziyoda,
Dilni ezdi bezovta tushlar.
To'lib ketdi, axir, dunyoda
Simurg'ini yo'qotgan qushlar.

Insoniylik ko'chasiga yot —
O'z vatanin sotgan kimsalar.
Oqibatni qilmaslar hech yod
Qo'lli qonga botgan kimsalar...

Chap ko'ksimda ko'chkililar ko'chib,
Kiprigimda ko'z yosh shodasi.
Yuragimning ustidan kechib,
Ezgilaydi ohu to'dasi.

«Yuhonafsin tiysalar-chi, o...» —
So'roqlaydi turnaqator g'am.
Axir, rizqin beradi Xudo
Ushoqgina hasharotning ham.

«Ma'rifat, — der Malikul Kalom, —
Olam ahlin bir najotidir.
Senga bu dard muborak, bolam,
Ash'or — diling munjojotidir.

Ming shukurkim, zulm tig'idan
Xoli bo'lgan bir bo'ston poydor.
Ikki daryo oralg'ida
Orzularim ijobati bor!»

Oranizda kezadi mangu
Qalamidan nur sochgan bir zot.
Odamiylik yuksalsin, der u,
Toki gulga burkansin hayot!

Yashamaylik so'zamol bo'lib,
So'z — a'mol, deb yashaylik, ey do'st.
Tinchlik deya, mehrga to'lib,
Birga qadam tashlaylik, ey do'st.

Pok niyatlar hamroh bo'lsa gar,
Billimaydi yo'lning yirog'i.
Ko'nglimizni elgay munavvar
Navoiyning yoniq chirog'i!



CHOLPON BOBOM

Tong otmogda, yulduz hamon charaqlaydi,
O'ylanaman ul yulduzga qarab mudom.
Nima qilay, xayolimda yaraqlaydi
Oy, quyoshga ziyo tutgan Cho'lpon bobom.

«Voh elim!» — deb aytolmagan so'zi qoldi,
Yulduz uchgan kechalarda bo'zi qoldi.
G'animlari unut bo'ldi — o'zi qoldi,
Tubanlardan kulib ketgan Cho'lpon bobom.

Na ko'kda va na ko'ngilda so'ngaydir u,
Chaqmoq sinsa-sinar, sira sinmaydir u.
Bo'ysunsa, bir ko'ngliga bo'ysungaydir u,
Bu dunyodan g'olib ketgan Cho'lpon bobom.
Sodiqdirman Xudo bergan fe'limga, deb,
Bosh suqmasin kir sharpalar dilinga, deb,
Kunduzlarni baxsh etayin elimga, deb,
Kechalarda qolib ketgan Cho'lpon bobom...

ELIM DEB...

*«Loaql ularning, qoralovchi qora ko'zlarining ko'ngli
uchun bo'lsa ham menga eng oliy bo'lgan jazoni bera
ko'ringiz. Ko'nglida shamni g'uboroti, teskarichilik
maqsadi bo'lmog'on meningdek sodda, go'l, vijdonlik
yig'itiga bu qadar xo'rlikdan o'lim tansiqroqdir...»*

(**Abdulla Qodiriyning suddagi nutqidan**)

O'tuz sakkizinchi yil. Beshinchi oktyabr.
Xoltrotga ushbu kun bitildi abadiy yod.
Tomirlarin ip qilib kashta tikdi onalar,
O'ksib-o'ksib yig'ladi Hazrati Adabiyot.

O'rtilgan qator-qator bug'doy bog'lari misol,
Yovga yov, lek ko'ngliga qullar uxlaydi bunda.
Qasam ichmagan garchi, beqasam to'ni yalov,
Turonni turg'azguvchi ular uxlaydi bunda.

«Erksiz bandasan,

mangu yashayver diling dog'lab» —
Desalar sher, yo'lbarsdek o'kirib yig'laganlar.
Tan og'rig'in tuymasdan,
xanjarday ruhini chog'lab,

«Voh elim!» — deb o'ksinib,
to'kilib yig'laganlar.

Timmay yutardi qurbon, talab etardi yuh,
O'laksaxo'r qushlarning tadbiri-yu hiylasi.
Milatning joni hamda shoni oziq bo'ldi, o,
La'natlangan, dahshatli qatag'on mashinasil!

Tushlarimda bobomning egnida eski shinel,
Uyg'on, yo'llaring oydin, qo'y,

Men sen bilan birgaman, biz-la birga buyuk el,
Seni kutyapti yo'llar, ko'p uxlama, bolam, der.

Ha, bedormizi G'aflatga qo'ydik endi abad chek,
Har lahza ezgulikka qonib yashamoq kerak.
Istiqlohning to'yida To'yboshi aytganidek:

«Elim deb, yurtim deya yonib yashamoq kerak!»

Buyuk umid-la yo'lga chiqqan avlodimiz, zero,
Quyoshning ilk nurlarin diliga o'rar sabolar.
Rozi bo'lsin yurt bizdan, shunday yashaylik, illo,
Fido etgan joniga rozi bo'lsin bobolari!

OYBEK


«Tushlarimda uvillar
Qish quyuni betinim.
Tanho kezaman, yig'lar —
Yuragimda vatanim»¹.

Qoyalarga boqaman,
Men jonsarak, jon halak.
Chaygaladi yuksakda,
Bir tuppina na'matak.

Deyman, balki, u bilmas
Qiyralib ketganin jon.
«Qorrim och, esga kelmas,
Xaltamdagi g'ishtdek non...»

Qoyalarning labida,
Oybegimni ko'raman.
Ko'nglidagi dog'lari —
Oydegimni ko'raman.
Egnida bor edi to'n,
Begasam kiygandi-yov.
Boshida sarg'ish do'ppi,
Oftobda kuygandi-yov.

¹ Oybekdan



«Na'mataklarga boqing,
Ko'ring gullaringizni.
Qoyadan munkib ketmang,
Bering qo'llaringizni...»


Qo'llarin cho'zolmaydi,
Qo'llari ojiz uning.
Yig'laydi, so'zlolmaydi,
Tillari ojiz uning...

Ko'zimga tortlar mil,
Og'ir ruhim... Va tanim.
Tanho kezaman yig'lar —
Yuragimda vatanim.


Yozmasin deb battollar,
Qo'lin ojiz qilishgan.
Aytmasin deb el dardin,
Tilin ojiz qilishgan.

Beun yig'lar Oybegim,
Ko'ngil dog'i oydegim:
«Bir sirdosh topolmasdan,
Na'mataka so'z degum...»

Tushlarimda uvillar
Qish quyuni betinim.
Tanho kezaman, yig'lar —
Yuragimda vatanim...»



1941-YIL




Poyingga tiz cho'kib, sevgilim,
Men ham dil roz aytaman, dedim.
Jang maydoni chorladi seni,
Va'da berding, «Qaytaman!» — deding...

Seni kutar qirg'inbarot jang,
Men qanday jim o'tiraman-a?
Ketar chog'ing dedim chimrilib:
«Agar o'lsang, o'ldiraman-a!»

«Poyingga tiz cho'kay, sevgilim...»
Bitdim kun-u tunlar ora xat.
Menga omon bo'lsang bas edi,
Kelmasa bas edi qoraxat.

«Poyingga tiz cho'kay, sevgilim...»
Qolayapsan nechun kechikib?
Kutub oldim o'n sakkizimni,
Sensiz juda-juda ichikib...

Qayding...
Faqat oyog'qlaring yo'q...
Meni yengdi, qayg'ular yengdi.
Jilmaygancha deding: «Poyingda
Bir umr tiz cho'kaman endi...!»



O'TKAN KUNLAR

Qoq yarim tun. G'ildiraydi oy,
Borgan sari uqiy boraman.
Ko'zlarimdan uyqu topmas joy,
«O'tkan kunlar»... O'qiyveraman...

Qarog'larim qololmas tutib,
Sahfalariga sochar jolamni.
O'rtnaman tuyqus eshitib,
Zaynabniso aytgan o'lanni:

«Seni sevmay o'zim o'lay-ey,
Ro'molimning gullari kuydi.
Hay-hay o'lan, jonim o'lan-ey,
Yor menimas, o'zгани suydi.

Boshimda ming tashvish edi-ku,
Ishqim dildan toshmish edi-ku.
Valosizim, lek suyganing ham
Oltin emas, kumush edi-ku.

Qay toshlarga urayin boshim,
To'lin oyday dilginam dog'li.
Xazon bo'ldi o'n yetti yoshim,
Ne istarding mendan, bek o'g'li?!

Seni sevmay o'zim o'lay-ey,
Ko'molimning gullari kuydi.
Hay-hay o'lan, jonim o'lan-ey,
Yor menimas, o'zгани suydi...»


G'ildirar oy. Shildiraydi soy,
Borgan sari uqiy boraman,
Allalaydi kecha, hoynahoy,
Uxlab qolib, tushlar ko'raman.

Somon shuvoq va paxsa devor...
Taraladi mungli kuy mudom.
Eski to'nga o'ranib bedor,
Mung'ayadi Qodiriy bobom...

Tushlarimda ko'raman hanuz,
Qadrlarini kamon ko'raman.

Dilni tinab, keyin seppad, shoz RESPUBLIKASI
OLTI VA O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
Bek, xonlarni yonidoshmen qurilvati CHIRCHIQ
Koshki, odam bo'ROQ RESURS MARKAZI
Koshki, ulus g'amini yesa. **FILIALI**
Bobom sho'rlik chekar qayg'ular,
Paxsa devor ortida esa **CHIRCHIQ**

Kumushbibi xinalarini.
Ko'z yoshiga **CHIRCHIQ**
Zaynabniso d...
Og'usini tugib **CHIRCHIQ**





RASHK

Odam Ato shikorga ketse,
Momo Havo g'amini yerkan.
Kuzatarkan ostona uzra:
«Boshqalarga boqmanq-a...» — derkan.

Ilk O'tamiz qolarnish hayron,
«Ikkinizga hijron yo'q-ku», — deb.
«Bu nechuk so'z, dunyoda hamon
Bizdan o'zga inson yo'q-ku», — deb...

Momomeros darddan qon bag'ir,
Yuz tutaman otash hovurga.
Ranjimang-da, rashk qilsam, axir,
To'g'rilannas qiyshiq qovurg'a...

ONAJON...

Onajoni Yozmoqqa shoshildi qalam,
Onajoni Men sizni juda sog'indim.
Faqat bitta narsa qiladi alam —
Sizga o'xshamayman, shunga og'rindim.

Javobsiz savolga ko'mdim o'zinni,
Qaldirg'och va'dasi kuzgacha ekan.
Bir chetga qo'yayin qosh-u ko'zinni,
Hatto ko'nglimiz ham o'zgacha ekan.

Armonlar bag'ringiz tilmasin aslo,
Sizga ozor bergan ozor qaqshasin.
Sizga o'xshamayman, og'rindim, ammo
Dunyoda har ona sizga o'xshasini!



QORPARCHALAR BAHSI

- Ahil do'stimiz ikkimiz,
Qara, uchish qanday sozi
- Biz yer uzra tushyapmiz,
Buni demaslar parvozi
- Do'stim, yerga tushganda,
Oppoq ko'rpa bo'lamiz.
- Bizni toplashar bunda,
Yerga tushsak — o'lamiz.

- Jilg'a bo'lsak agarda,
Dengiz tomon yo'l tikka.
 - Xomxayolsan, eriyimiz
Va singiyimiz yo'qlikka.
- Qorparchalarning bahsi
Oxir poyonga yetdi.
Har kim o'zi tanlagan
Qismati tomon ketdi...

BAXT

- Qo'lingda ne? — keldi so'ragim...
- Qo'limda baxt, mana, qaragin...
- Nega buncha kichkina? Nega?
- Shu ham yetib ortadi menga.
- Qanday nurli, qanday chiroyli!
- Berayimni senga ham?
- Mayli...

- Oh, issiq-ku, qo'l kuyarmikan...
- Bersang, baxting ko'payar ekan.
- Faqat hasad kuydirar, bilsang,
- Baxt ko'ngilni kuldirar, bilsang.
- Men ham baxtni baham ko'raman.
- Qanday yaxshi, masrur bo'laman...
- Xayr! Borgini! Bergini! Kutmas vaqt,
Ko'pchilik-la baxtlidir bu baxt!



RANGIN DUNYO

*Dunyo azal rangindir va biz
O'ylagandan ko'ra ranginroq.
Shavkat Rahmon*

Shoir asli musavvir demak,
Chizari rangin dunyo tasvirin.
Har yaproqda ilohiy sir bor,
Har bir toshda rang bor yashirin.

Ko'r istagan rangiga bo'yar
Xayolida butun dunyoni.
Kimdir turfa shakliga yo'yar
Ma'nisi yo'q tussiz ro'yoni.

Ninaching qanoati go'zal,
Fusunkor va haridir ular.
Nim pushitrang, shafaqday zarhal,
Men sevganim nimpushti gullari!

Ko'rmog emas, etmog kerak his,
Shudir bizga azaliy saboq:
«Dunyo azal rangindir va biz
O'ylagandan ko'ra ranginroq!»

Ulgurmog shart, toki fursatning
Chalimasdan oxirgi zang'i.
Biz dunyoni chiza olgaymiz,
Oq bo'lsa bas ko'nglimiz rangi!



IXTIRO

Odamlar yaratdi buyuk ixtiro —
O'zi gapiruvchi, yuruvchi robot.
Yer yuzi, butun bir koinot aro
Yangicha dunyolar quruvchi robot.

Juda ham odamga o'xshar ekan u,
Yuzi bor, ko'zi bor, hatto qoshlari...
Mabodo simlarin kuydinsa qayg'u,
Sun'iy kiprigin nam qilar yoshlari.

Odamlar ham tobora o'xshar robotga,
Po'latday toblanib, qotib boradi.
Ko'ngli qattiqlikni yo'yib sabotga,
Temir tuyg'ularga botib boradi.

Faqat muhabbatning qadri qisqargan...
Mehriga odamlar, aytin, to'ydimi?
Yo o'zi yaratgan temir nusxaga
Bilmasdan, yuragin berib qo'ydimi?!



SOG'INCH

Oh, qishloqda oltin behlar
Tapillab, tapillab to'kildi.
Sog'inchdan g'o'r boshim egilar,
Ichikdim, onajon, o'kindimi!

Tushlarimda egachim — bahor
Chakkam uzra gullar taqadi.
Bekinnachog o'ynab, beqaror
Qizg'aldoqlar tomga chiqadi.

Uzilganча nogoh shoxidan
Olma oqib borar, onajon.
Kim achinar, kimning,
oh, bu dam
Ko'zin yoqib borar, onajon.

Mevalar g'arq pishgandir, ona?
Goh xayolan kelar so'ragim.
Ishq quyoshi ostida, mana,
Hil-hil pishdi mening yuragim.

Suykalarikan yellar yuzimga,
Anorlarning novdasin egdi.



Yaqin qoldi o'n sakkizimga,
Keksa ruhim jonimga tegdi!

Tuyg'ulardan aylanar boshim,
Chorlar timmay samoviy bir sas.
Chang yo'llarga to'kilar yoshim,
Faqat ko'nglim loy bo'lmasa bas!..





OQ OLMA

Men — oq olma. Tovlanmadim taram chizib,
Shabbodalar sho'xligidan ketdim bezib.
Hech kim meni tutolmagan qo'lin cho'zib,
Nogoh tushgan joyim bir kun soy bo'ladi.

Dil sasimga birov qulog tutsa, do'stlar,
Qiz sollona yurib bog'ga ketse, do'stlar,
O'g'il shodon vaqti chog'ga yetse, do'stlar,
Ko'zi ko'rmas ota munkib... loy bo'ladi.

Soyda olma oqsa, tutgin, ol-a, derlar,
Qaldirg'ochning qanolini ola, derlar,
Oh, yoshlikda bergan ko'ngil balo, derlar,
Shu baloga giriftor chin boy bo'ladi.

Dugonalar soy bo'yida lapar aytdi,
Erkalanib sabo, sarin xabar aytdi.
Bu diyorning baxtli kuni mayli, hatto
Og'ir kuni elga kelgan to'y bo'ladi.

Xush kelding, dengi!
Ey ahli ishq! Somonro'ylar,
Baxtsizlikni yengish — menga baxt, humoylar,
Quyoshjonga ko'zgu bo'lar bir kun soylar,
Oq olmaning aksi ko'kda oy bo'ladi...

SO'NGGI YAPROQ

Mezonlarni kutib oldim mezbon bo'lib,
Hur shabboda esaverdi baxt tongida.
Huzurimga qaytsang qadri arzon bo'lib,
So'nggi yaproq to'kilganda, kuz so'ngida...

Ko'sak chuvsam, timog'indan qon sizadi,
Beni desam, jonginamdan jon sizadi,
Xazonchambar bog'larimni kim kezadi
So'nggi yaproq to'kilganda, kuz so'ngida?

Haq isminгни kaftlarimga o'ydirganmish,
Kuzning sehri ko'klamlarni suydirganmish,
Quyosh nuri oy yuzini kuydirganmish,
So'nggi yaproq to'kilganda, kuz so'ngida.

Hamdalkadek bir tilim oy qalqdi ko'kda,
Xazonlarda mung bor... ammo ifor yo'q-da.
Ayrilgandik, uchrashmoq ham endi haqdir,
So'nggi yaproq to'kilganda, kuz so'ngida.

Ha'zan mangu hayot bo'lar yurakzorlar,
Ha'zan jonga tegadi gung — tirikzorlar.
Qaytsang qaytgin, faqat xazon fastidamas,
Hodroq-bodroq gullaganda o'rikzorlar...



ERTAK

Tamommisan, ertagim,
Eshimnamim, ko'rmadim.
Omonmisan, ertagin,
Holingani bir so'rmadim.

Aytayin kinga dardim,
Bodrar orzu kurtagi.
Bolalikda suyardim —
«Kenja botir» ertagin.

Jamalaksoch qizchaman,
U — yog'a,
men yeng edim.

Xayol surardim, uning
yelkalari keng edi.

Ulg'ayib borgan sari
Bodrar tashvish kurtagi.
Yaxshi ko'raman hanuz
«Kenja botir» ertagin.

Faqat do'st deb dilni har
Kinga ulab qo'ygannan.

Va bodomdek sirimni
Erta gullab qo'ygannan.

Holdan toydi nigohim
Tirmashib qirq devonga.
Baliki ketib golgan u
Borsa kelmas tomonga.

Xayr, ertak, unutdim,
Endi holim so'rana.
Kenja botir mas asli,
Seni yaxshi ko'raman...



CHOPON YIGIT

Bulut karvon-karvon bo'lib o'tayotir,
Tok novdasi o'z-o'zini butayotir.

Men bilimman, hamon meni kutayotir —
Cho'pon yigit...

Mahzun-mahzun eshladi nay nolasi,
Jondan o'tib ketdi, axir, kuy tolasi.

Gulob bilan to'ldi qadah — qir lolasi,
Cho'pon yigit...

«She'r kerakmi, jon kerakmi ol», mayliga¹,
Ishq dostonin so'zlab bersam gulxaytga.

Endi qayta chiqmas bo'ldim gul sayliga,
Cho'pon yigit...

Rashkim kelar gulzorlardan, suluvarlardan,
Rashkim kelar dil zorlardan, suluvarlardan.

Seni hatto qizg'onaman suruvlardan,
Cho'pon yigit...

Senga faqat iztiroblar yo'llovchiman,
Men shundayin dil ovchiman, yo'l ovchiman.

¹ Zulfiya mistrasi

Qularingda eng g'arib bir yo'llovchiman,
Cho'pon yigit...

Yorlga xat bitib bir qiz, «Keling...» — debdi,
Yaragini yutib ilkis, «Keling...» — debdi.

«Kelmadingiz, endi bo'ldim kelin...» — debdi,
Cho'pon yigit...

Menard kaslar ko'zi mudom bo'lar irkit,
Ulg'aygansan Shiroqlardan tinglab o'git.

Bonga atab tikib qo'ydim chopon, yigit,
Cho'pon yigit...

Men-la birga ketmaysanni xun dunyodan,
Ketolmaysan, yig'lab o'tma ho'ng dunyodan.

Bon qo'ylardan kecholmaysan
Cho'pon yigit... — men dunyodan,





OHU

Erka kiyik, maylimi bir erkakasam...
Muhammad Yusuf

Ohli ohu, yo'l bo'yida yonboshlabsan,
Qopqonlarga oyog'ingdan tutildingmi?
Qorako'zim, qarog'ingni qon yoshlabsan,
Yo sherlardan bazo'r qochib qutuldingmi?

Ohli ohu, ey yarador, go'zal ohu,
O'lmagan bu ikkimizning sabli jondir.
Ishqim mening bo'ldi zarbulmasal, ohu,
Lolalar bu — qizil gulob to'lgan jondir.

Tug'ishganim, axir, senga aytgandim-ku,
Ogoh bo'lgin, doim bo'lgin ehtiyot, jim...
Men ham dardmand...
Mening dardim muhabbat, bu —
Beshikdan to'butugacha ehtiyojim!

Ohli ohu, hijron hasrat soyasidir,
Bu shirin dard, g'ofillar hech bilmaydilar.
Tomirlarim — atirgulning poyasidir,
Erta-inda qon to'kilib, gullaydilar...

¹ Navoiy hikmati

Chunokkorlar aybini hech oqlolmaydi,
Fahromin yo'qotgandi Bahrom, axir.
Ammo bizni iztirobdan saqlolmaydi
Yetti doston, yetti tun-u, yetti qasr.

Jufting kutar balki qayda uxlamayin,
Borgin, joning to'sha unga, to'sha, ohu...
Dardingnangni men olayin, men o'layin,
Men men uchun yasha, xo'pmi, yasha, ohu...



UMID

Mitti yulduz mitrirar
Olis osmon bag'rida.
Eng so'nggi umid misol
Umidsizlik qa'rida.

Xazonrezgi bog'lar, kuz...
Dilni ko'madi savol.
So'nggi yaproq hilpirar,
Eng so'nggi umid misol.

Kimga ne joiz, bilmam,
Menga baxt, quvonch kerak.
Yetmoq uchun manzilga
Metin bir ishonch kerak.

Faqat olg'a bormoq shart,
Bo'lsa-da yo'lida xatar.
So'nggi umid manzili —
So'nggi nafasga qadar!

CHITTAGUL

Chittigulim, chittigul,
Mittigina, mitti gul.
Haeratlashamiz birga,
Dilda bardosh bitdi, gul.

Ho'yling onam bo'yiday,
Mingni naying kuyiday.
Shabnamni ko'zyoshlaring,
Seni kim ranjirdi, gul?

Ho'lib qolsa barging chang,
Ko'mrayadi gulg'unchang.
Holim yomon, holim tang,
Dil hilironi totdi, gul.

Ko'ngli nega xijilroq,
Gulbarglaring qizil, oq.
Benga tanish qizaloq
O'n yettiga yetdi, guli...



ISHQ

Jonim og'rir zirqirab, ruh — shod,
 Bormi charxda mendek devona.
 Bosh ustimda Fuzuliy ustod
 Va ko'nglimda Mashrab devoni.

Uzatadi hurlar oltin jom,
 Tutgin deydi pokitynat yorga.
 Tushlarimda dunyo har oqshom
 Aylanadi kapalakzorga.

Olov kechar faqat samandar,
 Yongan dildan silqib chiqar ashk.
 Faqat bulbul kuylar chamanda,
 Har kinga ham nasib etmas ishq.

Ezgu hisdan yonsin to ko'ngli,
 Shunda umr yo'llari oqdir.
 Ishq degan o't jonga tushsa, bil,
 Bu — xirmonga tushgan chaqmoqdir!

Ko'ksim yonib turibdi, hay-hay,
 Vaqt demayman beg'am damimni.
 Parvonaman — chit sillab yonay,
 Topib bering mening shamimni!



ASTA/ASTA


Bo'g'oribdi
 Ko'nglimga hech ketmagan darz asta-asta,
 To'g'day sho'klim, to'g'day o'sadim,
 Charx o'tdi darz asta-asta.

Yolg'izdigan ko'p
 darzlarimning boshini nam ko'rdim, do'stlar,
 Kim — kashf
 Kibritning ko'ligaydir past asta-asta.


Ham beg'aman, qarovim yo'q,
 qularga ikkiyotim yo'q,
 Toz ketmasang apo sulton, bo'g'ayman,
 bas, asta-asta.

Hosil kishi
 qonov kishi, astorim ehalati chorgohin,
 To'g' adablar bosh ko'vardi,
 tabirani maet asta-asta.

Hamim ko'nglim jantabandir,
 mabkamim, ey parti, shomadir,
 To'g' jantabandi to'knashli odlim
 tarz asta-asta.



Dildorlar ham dor keladi,
xunmorlar ham mor keladi,
Shayx San'on qismatidan o'qimang va'z asta-asta



Muruvvalga muruvvalsiz bo'lib

berding qanday dardini,


Ishq deb jondin ayrilgayman, birdan emas,
asta-asta.



Shayx San'on qismatidan o'qimang va'z asta-asta

MUNDARIJA

1. Dildorlar ham dor keladi, xunmorlar ham mor keladi, Shayx San'on qismatidan o'qimang va'z asta-asta	3
2. Muruvvalga muruvvalsiz bo'lib berding qanday dardini, Ishq deb jondin ayrilgayman, birdan emas, asta-asta	5
3. ...	6
4. ...	8
5. ...	10
6. ...	11
7. ...	13
8. ...	15
9. ...	16
10. ...	18
11. ...	19
12. ...	20
13. ...	21
14. ...	22
15. ...	23
16. ...	24
17. ...	26
18. ...	27
19. ...	28
20. ...	30
21. ...	32
22. ...	34
23. ...	35
24. ...	36
25. ...	37





Adabiy-badiiy nashr

BIRINCHI KITOBINI

Muruvat G'aflojonova

NURAFSHON TONGIAR

She'rlar

Muharrir Umida Rajabova

Badiiy muharrir Jahongir Badalov

Texnik muharrir Yelena Tolochko

Musahih Umida Rajabova

Matn tervichi Gulchehra Azizova



Litsenziya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2010-yil
15-aprelda ruxsat etildi. Bichimi 60x90¹/_g. Ofset qog'oz.
BalticaUz garniturası. Shartli bosma tabog'i 1,25. Naahı
tabog'i 1,89. Adadi 20000 nusxa. Shartnoma № 70-2010.
Buyurtma №372.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'ppon
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent,
Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (371) 244-10-45. Faks: (371) 244-58-55.

«TOSHKENT TEZKOR BOSMAXONASI» mas'uliyati
cheklangan jamiyati bosmaxonasida chop etildi. 100200,
Toshkent, Radioliny tor ko'chasi, 10.